SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 4
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

O‘zbekistonda madaniy-ma’rifiy muassasalar tizimining mustaqillik yillaridagi shakllanish bosqichlari va transformatsiyasi

UO‘K: 008(575.1):351.85

Sayfiyeva Zuhra Fazliddin qizi

Oriental universiteti, tarix yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda madaniy-ma’rifiy muassasalar tizimining mustaqillik yillarida qanday shakllangani va o‘zgargani me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda rasmiy statistika asosida o‘rganildi. Boshqaruv organi, huquqiy asos va resurs mexanizmi mezonlari bo‘yicha 1991–2026-yillar uchun to‘rt bosqichli davrlashtirish taklif qilingan, o‘zgarishning tashkiliy, funksional, moliyaviy-huquqiy turi ajratilgan. Shuningdek, boshqaruv organlarining qayta tashkil etilishi esa “birlashtirish–ajratish” aylanmasi sifatida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar

madaniy-ma’rifiy muassasalar, mustaqillik yillari, davrlashtirish, transformatsiya, madaniyat boshqaruvi, institutsional o‘zgarish.

Аннотация

В статье на материале нормативно-правовых актов и официальной статистики рассматривается, как складывалась и менялась система культурно-просветительских учреждений Узбекистана в годы независимости. По критериям органа управления, правовой основы и ресурсного механизма предложена периодизация 1991–2026 гг. из четырёх этапов, выделены изменений организационные, функциональные, финансово-правовые, а реорганизации органов управления истолкованы как цикл «объединение–разделение».

Ключевые слова

культурно-просветительские учреждения, годы независимости, периодизация, трансформация.

Abstract

Drawing on legal acts and official statistics, the article examines how Uzbekistan’s system of cultural and educational institutions took shape and changed during independence. A four-stage periodization for 1991–2026 is proposed on the basis of governing body, legal basis and resource mechanism; organizational, functional,

financial-legal are distinguished. And reorganizations of governing bodies are interpreted as an "integration–separation" cycle.
Keywords
cultural and educational institutions, independence years, periodization, transformation.

Kirish

Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi madaniyat markazlari, muzeylar, teatrlar, kutubxonalar va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuritadigan tuzilmalar sovet davridan qolgan tarmoq asosida rivojlandi va bugun o‘z huquqiy asosi hamda boshqaruv mexanizmiga ega alohida tizimga aylandi. Bu yo‘l davomida boshqaruv organlari birin-ketin birlashtirildi va yana ajratildi. Shuningdek, umumiy qonun qabul qilindi, moliyalashtirish usullari ham o‘zgardi.

Tadqiqotlarda bunday o‘zgarishlar ko‘pincha bitta muassasa turi yoki tor davr doirasida ko‘riladi. Butun tizimni qamrab oladigan, bosqichlarni aniq mezonlar bilan ajratadigan va o‘zgarish turlarini bir-biridan farqlaydigan tahlilni biz ko‘rib chiqqan manbalar orasida uchratmadik. Shunga asoslangan holda mazkur tadqiqotning maqsadi mustaqillik yillarida madaniy-ma’rifiy muassasalar tizimi qanday bosqichlarni bosib o‘tganini aniqlash va uning o‘zgarish xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Ishning ilmiy yangiligi ko‘rib chiqilgan manbalar doirasida uchta mezonga tayangan to‘rt bosqichli davrlashtirish taklif etilishi, tashkiliy, funksional va moliyaviy-huquqiy o‘zgarishlar ajratilganligi va boshqaruv organlarining almashinuvi esa “birlashtirish–ajratish” sikli deb talqin qilinganligida namyon bo‘ladi.

Adabiyotlar sharhi va metodlar

Tadqiqot ishini o‘rganish davomida manbalar uch guruhga bo‘lindi.

Me’yoriy hujjatlar: Vazirlar Mahkamasining 1998-yildagi 311-son qarori, 2004-yilgi PF-3491, 2017-yilgi PF-4956 va PQ-3160, 2021-yilgi “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun va PQ-5040, 2023-yilgi PF-114 hamda 2026-yil 2-iyundagi Farmon. Ular tizimning huquqiy va tashkiliy asosini belgilaydi, lekin har biri alohida masalani hal qiladi va umumiy evolyutsiyani ko‘rsatmaydi.

Ilmiy maqola va rasmiy statistika kiradi. R. Qurbonov 1991–2025-yillardagi davlat siyosatini yoshlar ishtirokidagi tanlov va festivallar misolida yoritadi. U 1992-yil 27-

apreldagi qaror bilan Madaniyat vazirligi va uning hududiy boshqarmalari faoliyati takomillashtirilganini, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038 milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlaganini va 2021-yilda yuqoridagi Qonun qabul qilinganini qayd etadi, biroq maqsadi tizim bosqichlarini ajratish emas [1]. Milliy statistika qo‘mitasining press-relizi esa 2020–2024-yillardagi tarmoq hajmini beradi.

Boshqaruv organi, huquqiy asos va resurs mexanizmi mezonlari asosida bosqichlarni ajratadigan hamda o‘zgarish turlarini farqlaydigan tahlil ko‘rib chiqilgan manbalarda uchramadi. Tadqiqot ishi aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Shuningdek, tadqiqot hujjatlarga tayangan tarixiy-qiyosiy tahlil asosida o‘tkazildi. Tahlil birligi sifatida davlat madaniy-ma’rifiy muassasalar tizimini qaysi organ orqali boshqargani, qanday huquqiy asosga tayangani va qanday resurslar bilan ta’minlagani olindi. Davrlashtirish boshqaruv organining maqomi va tarkibidagi o‘zgarish, huquqiy asosdagi burilish va resurs va moliyalashtirish mexanizmidagi o‘zgarish mezonlari bo‘yicha qilindi. Har bir hujjatdagi o‘zgarish tashkiliy, funksional yoki moliyaviy-huquqiy turga ajratildi.

Natijalar

Xususan, 2004-yilgacha madaniyat sohasi mustaqil Madaniyat ishlari vazirligi qo‘lida bo‘lgan. 1992-yil 9-martdagi PF-360-son Farmon uning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan edi. O‘sha yilning 27-aprelidagi qaror bilan esa vazirlik va hududiy boshqarmalarning ishi tartibga solindi. Ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda muvofiqlashtirishga dastlabki urinish 1998-yil 24-iyuldagi 311-son qaror bo‘ldi. U davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini uyg‘unlashtirishni maqsad qilgan, ilova qilingan dasturda esa bir qator tadbirlar uchun “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi bilan Madaniyat ishlari vazirligi birga ijrochi sifatida ko‘rsatilgan [2]. Qaror 2021-yilda kuchini yo‘qotgan. Demak, bu davr sohaning tarmoq bo‘yicha ajratilishi va muvofiqlashtirishning ilk sinovi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, 2004-yil 27-sentyabrdagi PF-3491-son Farmon bilan Madaniyat ishlari vazirligi va Davlat jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi tugatildi, ularning o‘rnida Madaniyat va sport ishlari vazirligi tashkil topdi [3]. Yangi vazirlik vazifalari qatoriga madaniy-ma’rifiy ishlarni yuritish, shuningdek mahallalarda bu ishni davlat va jamoat

tashkilotlari, o‘quv yurtlari hamda hokimliklar bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yish kirgan. Bosqich oxiriga kelib kamchiliklar rasman tan olindi. 2017-yilgi PF-4956 matnida vazirlik ko‘pincha madaniy-ommaviy va sport tadbirlarini o‘tkazish bilan cheklanib qolgani, davlat boshqaruvi va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagani, kadrlar tayyorlash tizimi esa zamon talabiga javob bermasligi aytilgan. Farmon sharhida ikki sohaning bitta vazirlikda turishi chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga imkon bermagani ham ko‘rsatilgan [4].

2017-yil 15-fevralda PF-4956 bilan Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatildi. Uning negizida Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi tashkil etildi. Vazirlik huzurida “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi va byudjetdan tashqari Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi tuzildi; “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi, “Artmadad” va “O‘zbekmuzey” jamg‘armalari tugatilib, Xalq ta’limi vazirligiga qarashli bolalar musiqa va san’at maktablari hamda ikkita san’at saroyi vazirlik tizimiga o‘tkazildi. O‘sha yilning 28-iyulidagi PQ-3160-son qaror Ma’naviyat va ma’rifat markazini qayta tashkil etdi. Prezident jamoatchilik asosida raislik qiladigan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi tizimida faoliyat yurituvchi bu markaz ikki markazni qo‘shish yo‘li bilan tuzilgan, rahbarining maqomi esa vazirnikiga tenglashtirilgan [5]. Qurbonovning ma’lumotiga ko‘ra, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038 milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlagan.

2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-son Qonun madaniy-ma’rifiy tashkilotlarni alohida toifa sifatida mustahkamladi: bu toifaga madaniyat markazlari, milliy madaniy markazlar, muzeylar, klub muassasalari, madaniyat saroylari va uylari hamda madaniy-ma’rifiy markazlar kiritilgan [6]. Qonun Madaniyat vazirligiga vazirliklar, idoralar va mahalliy ijro etuvchi organlarning madaniyat va san’at sohasidagi ishini muvofiqlashtirish vazifasini yukladi, davlat madaniyat muassasalarini uch yilda bir marta attestatsiyadan o‘tkazishni joriy qildi, davlat va nodavlat tashkilotlarni farqladi. O‘sha yil 26-martdagi PQ-5040-son qaror ma’naviy-ma’rifiy ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratishni maqsad qildi; unda tuman va shaharlarda “Ma’naviyat va ma’rifat maskani” ochish, davlat oliy ta’lim muassasalarida birinchi prorektor lavozimini joriy etish nazarda tutilgan [7]. 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmon Madaniyat va turizm vazirligi

negizida Madaniyat vazirligini tashkil etdi; shu hujjat bilan Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti deb qayta nomlandi, “O‘zbekteatr” va “Madaniyat ta’limi markazi” davlat muassasalari tashkil etildi, 15 ta madaniyat va san’at muassasasini davlat-xususiy sheriklik asosida tadbirkorlarga berish rejalashtirildi [8]. 2026-yil 2-iyundagi Farmon yana bir qadam tashladi. Vazirlik huzurida “Ijodga investitsiya” maqsadli jamg‘armasi tashkil etilib, unga 200 milliard so‘m ajratilishi belgilandi, Toshkent shahri, Samarqand va Namangan viloyatlarida hokimliklar muassisligida mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi direksiyalar ishga tushdi, nodavlat teatrlar uchun budjetdan qoplash tartibi nazarda tutildi [9].

1-jadval

Mustaqillik yillaridagi bosqichlar (muallif davrlashtirishi)

Bosqich	Boshqaruv tuzilmasi	Asosiy hujjatlar	Xarakterli o‘zgarish
I (1991–2003)	Madaniyat ishlari vazirligi	Qaror (1992); 311-son qaror (1998)	Dastlabki tashkiliy asos, muvofiqlashtirishga urinish
II (2004–2016)	Madaniyat va sport ishlari vazirligi	PF-3491 (2004)	Boshqaruvning birlashuvi
III (2017–2020)	Madaniyat vazirligi; Ma’naviyat va ma’rifat markazi	PF-4956, PQ-3160 (2017); PQ-4038 (2018)	Boshqaruvni ajratish, birinchi jamg‘arma
IV (2021–2026)	Madaniyat vazirligi (2023-yildan qayta tashkil etilgan); Markaz	Qonun O‘RQ-668, PQ-5040 (2021); PF-114 (2023); Farmon (2026)	Umumiy qonun, muvofiqlashtirish tizimi, resurs mexanizmlari

Hujjatlar kodlanganda o‘zgarishning uch turi ko‘rindi (2-jadval). Tashkiliy o‘zgarish tuzilmalarning birlashtirilishi, ajratilishi va tugatilishida namoyon bo‘ladi. Funksional o‘zgarish vazifalar mazmunidagi burilishni bildiradi. 2017-yilda vazirlik tadbirlar o‘tkazish bilan cheklanib qolgani tanqid qilingan bo‘lsa, 2021-yilda muvofiqlashtirish va attestatsiya qonunda mustahkamlandi. Moliyaviy-huquqiy o‘zgarish yangi moliyalashtirish manbalari va tashkiliy-huquqiy shakllarda ko‘rinadi. Yana bir muhim jihat: qonunga ko‘ra madaniy-ma’rifiy tashkilotlar bitta idoraga emas, bir necha idoraga tegishli - axborot-kutubxona sohasida maxsus vakolatli organ Prezident Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, kinematografiyada esa

“O‘zbekkino” Milliy agentligi. Demak, o‘zgarishlar bitta vazirlik doirasida emas, bir necha idora kesimida kechgan.

2-jadval

Transformatsiya turlari (muallif tahlili)

Tur	Misollar	Bosqichlar
Tashkiliy	Vazirliklarning birlashtirilishi va ajratilishi (2004, 2017, 2023); ilmiy-metodik markazning institutga aylantirilishi (2023)	II, III, IV
Funksional	Tadbirbozlikdan kadrlar va hududiy hamkorlikka ehtiyoj (2017); muvofiqlashtirish va attestatsiya (2021)	III, IV
Moliyaviy-huquqiy	Byudjetdan tashqari jamg‘arma (2017); davlat-xususiy sheriklik (2023); “Ijodga investitsiya” jamg‘armasi va direksiyalar (2026)	III, IV

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2024-yillarda faoliyat yuritayotgan muzeylar soni 105 tadan 138 taga (31,4 %) ko‘paygan, konsert tashkilotlari 72 tadan 98 taga yetgan, teatrlar soni esa deyarli o‘zgarmagan: 49 dan 48 ga tushgan (3-jadval) [10].

Bosqichlardan tashqari, hujjatlarda uchta uzluksiz yo‘nalishni ko‘rish mumkin (4-jadval). Ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda 1998-yilda Markaz bilan vazirlik birga ijrochi etib ko‘rsatilgan, 2017-yilda Markaz birlashtirish yo‘li bilan qayta tashkil etilgan. 2021-yilda esa muvofiqlashtirishning yagona tizimi maqsad qilingan. Tarmoq boshqaruvi Madaniyat ishlari vazirligidan Madaniyat va sport ishlari vazirligiga, undan Madaniyat vazirligiga, keyin Madaniyat va turizm vazirligi negizida qayta tashkil etilgan Madaniyat vazirligiga o‘tgan. Resurs mexanizmi 2017-yilgi jamg‘armadan 2021-yilda qonunda sanalgan moliyalashtirish manbalari va 2023-yilgi davlat-xususiy sheriklikka, so‘ng 2026-yilgi maqsadli jamg‘arma hamda direksiyalarga qadar kengaydi. Ko‘rib chiqilgan hujjatlarda boshqaruv yo‘nalishida uchta (2004, 2017, 2023), ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda esa bitta (2017) tashkiliy o‘zgarish qayd etildi, shu sababli ikkinchisi nisbatan izchil rivojlangan deb baholanadi.

4-jadval

Institutsional yo‘nalishlar (muallif tahlili)

Yo‘nalish	Boshlanishi	Burilish nuqtalari	Hozirgi holat
Ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalish	1998: Markaz va vazirlik birga ijrochi	2017 (Markaz); 2021 (muvofiqlashtirish)	Kengash tizimidagi Markaz
Tarmoq boshqaruvi	Madaniyat ishlari vazirligi	2004; 2017; 2023	Madaniyat vazirligi
Resurs mexanizmi	2017: byudjetdan tashqari jamg‘arma	2021: qonun; 2023: davlat-xususiy sheriklik	Direksiyalar va “Ijodga investitsiya”

Muhokama

Natijalarda boshqaruv organlarining o‘zgarishida takrorlanuvchi holat ko‘rinadi. Unga asosan, 2004-yilda madaniyat sport bilan birlashtirildi, 2017-yilda ajratildi, 2023-yilda esa turizm bilan birga turgan vazirlikdan ajratildi. 2017-yilgi Farmonning o‘zida birlashtirish samara bermagani tan olingani bu talqinni qo‘llab-quvvatlaydi. Biz buni “birlashtirish–ajratish” sikli deb baholaymiz. Bunday sikl soha oldidagi vazifalar o‘zgarishiga moslashishdan darak beradi, ammo har bir qayta tashkil etish muassasalar uchun vaqtincha noaniqlik ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu xulosa hujjatlar tahliliga asoslangan va muassasalar darajasida alohida so‘rov bilan tekshirilmagan. Statistika o‘sish bir tekis emasligini ko‘rsatadi. Bunda muzeylar va konsert tashkilotlari ko‘paygan, teatrlar soni esa barqaror qolgan. Bu o‘zgarishlarni to‘rtinchi bosqich siyosati bilan bog‘lash uchun qo‘shimcha tahlil zarur, shuning uchun sabab-natija munosabati ilgari surilmaydi. Shuningdek, madaniy-ma’rifiy tashkilotlar bir necha idoraga tegishli bo‘lgani tizim miqyosida yagona statistik hisob yuritishni murakkablashtiradi.

Quyidagi bir qancha takliflar berib o‘tiladi, ularni amalda sinab ko‘rish lozim.

1. Har bir qayta tashkil etishdan keyin muassasalar tarmog‘i (soni, kadrlari, xizmatlari) bo‘yicha “oldin–keyin” taqqoslovchi hisobot tayyorlash. Buning uchun qonunda belgilangan, uch yilda bir marta o‘tkaziladigan attestatsiya natijalaridan foydalanish mumkin.

2. Madaniyat statistikasining qiyosiy qatorlarini 2020-yildan oldingi yillarga uzaytirish.

3. 2021-yilgi umumiy qonun va sohaviy qonunlarning 2026-yildagi yangi resurs mexanizmlari bilan qanchalik uyg‘unligini baholash.

4. Bir necha idoraga tegishli madaniy-ma’rifiy tashkilotlar bo‘yicha idoralararo ma’lumot almashish tartibini ko‘rib chiqish.

Nihoyat, to‘rtinchi bosqichda muvofiqlashtirish Markaz va Madaniyat vazirligiga tayangani ularning o‘zaro hamkorligini alohida tadqiqot mavzusiga aylantiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga asosan, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda madaniy-ma’rifiy muassasalar tizimining rivojini to‘rt bosqichga ajratish mumkin. Bular dastlabki tashkiliy asos (1991–2003), boshqaruvning birlashuvi (2004–2016), boshqaruvni ajratish va infratuzilmani qayta tashkil etish (2017–2020) hamda umumiy qonun, muvofiqlashtirish va resurs mexanizmlarining kengayishi (2021–2026).

Shu bilan birga, o‘zgarishlar uch yo‘nalishda kechgan, oxirgi ikki bosqichda esa funksional va moliyaviy-huquqiy o‘zgarishlar kuchaygan. Boshqaruv organlari “birlashtirish–ajratish” sikli bo‘yicha almashgan, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalish esa nisbatan izchil rivojlangan. Birinchi va ikkinchi bosqich haqidagi xulosalar cheklangan manbalarga, statistik xulosalar esa faqat 2020–2024-yillarga tayanadi.

Taklif etilgan davrlashtirish va o‘zgarish turlari tasnifi sohadagi keyingi tadqiqotlar uchun analitik asos bo‘lib hizmat qiladi. Kelgusi tadiqot ishlarida uni empirik ma’lumotlar bilan sinab ko‘rish reja qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kurbanov R. Youth Participation in Cultural and Arts Competitions in Uzbekistan // Society and Innovations. 2026. Special Issue 02. P. 263–268. DOI: 10.47689/2181-1415-vol7-iss2/S-pp263-268

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-iyuldagi 311-son qarori “Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ularning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz/docs/-813527

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 27-sentyabrdagi PF-3491-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz/uz/docs/330557

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi PF-4956-son Farmoni “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. URL: https://president.uz/oz/lists/view/257

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son qarori “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz/uz/docs/-4071203

6. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-son Qonuni “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz/uz/docs/-5230682

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz/uz/docs/-5344692

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoni “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz/uz/docs/-6547477

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-iyundagi Farmoni “Madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar to‘g‘risida” (raqami rasmiy sahifada ko‘rsatilmagan). URL: https://president.uz/oz/lists/view/9275

10. Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at muassasalari faoliyati: press-reliz, 28.07.2025. URL: https://stat.uz/img/images/madaniyat-press-reliz-uzb-lotin_p22090.pdf